



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

MUHAMMAD YUSUFNING “QORA QUYOSH” DOSTONIDA INSON RUHIYATI TASVIRI

Ravshanova Gulruh Yaxshiboy qizi

*Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarix va filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o‘qituvchisi gulruh.ravshanova2025@gmail.com*

Annotatsiya.

Maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining taniqli namoyandasi Muhammad Yusuf ijodidagi “Qora Quyosh” dostoni asosida insonning ichki kechinmalari, iztirob va umidlarini tarixiy voqealar fonida chuqur badiiy ifodalagan. Doston ruhiy iztirob, umidsizlik va ma’naviy yuksalish o‘rtasidagi o‘ta murakkab dialektikani ochib beradi. Asardagi xalqning og‘ir taqdiri, ma’naviy iztirob va umidi ramziy manzaralar, poetik obrazlar va real ruhiy kechinmalar orqali qanday ifodalangani ilmiy-nazariy asosda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Muhammad Yusuf, Qora Quyosh, doston, xalq ruhiyati, badiiy ifoda, iztirob, umidsizlik motivi, ramziy obraz, syujet, lirika, tarixiy xotira.

THE REPRESENTATION OF HUMAN PSYCHOLOGY IN MUHAMMAD YUSUF’S EPIC POEM “BLACK SUN”

Ravshanova Gulrukh Yaxshiboy qizi — Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, Faculty of History and Philology, Tashkent University of Applied Sciences.
E-mail: gulruh.ravshanova2025@gmail.com

Annotation.

The article, based on the epic poem “Black Sun” by Muhammad Yusuf, a prominent representative of modern Uzbek poetry, explores the deep artistic portrayal of human inner experiences, suffering, and hope against the background of historical events. The epic reveals the highly complex dialectics between spiritual anguish, despair, and moral elevation. It provides a scholarly and theoretical analysis of how the people’s *тяжел* fate, spiritual suffering, and hope are expressed through symbolic scenes, poetic images, and realistic psychological experiences.

Keywords. Muhammad Yusuf, Black Sun, epic poem, national psychology, artistic expression, suffering, motif of despair, symbolic image, plot, lyricism, historical memory.

ОБРАЗ ПСИХОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА В ПОЭМЕ МУХАММАДА ЮСУФА «ЧЁРНОЕ СОЛНЦЕ»

Равшанова Гулрух Яхшибой кизи — преподаватель кафедры узбекского языка и литературы факультета истории и филологии Ташкентского университета прикладных наук.

E-mail: gulruh.ravshanova2025@gmail.com

Аннотация.

В статье на основе поэмы «Чёрное солнце» выдающегося представителя современной узбекской поэзии Мухаммада Юсуфа рассматривается глубокое художественное отражение внутреннего мира человека, его страданий и надежд на фоне исторических событий. Поэма раскрывает чрезвычайно сложную диалектику между духовным страданием, безысходностью и нравственным возрождением. На научно-теоретической основе анализируется, каким образом тяжёлая судьба народа, его духовные муки и надежды выражены посредством символических картин, поэтических образов и реальных психологических переживаний.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, «Чёрное солнце», поэма, духовный мир народа, художественное выражение, страдание, мотив безысходности, символический образ, сюжет, лирика, историческая память.

Kirish. Zamonaviy o'zbek adabiyotida insonning ichki kechinmalarini chuqur tahlil qilish, uni xalqning umumiy ruhiy holati bilan uyg'un holda tasvirlash an'anasi davom etib keladi. Shu borada Muhammad Yusuf ijodi o'ziga xos o'rin egallaydi. Shoirning she'riy merosi, xususan, dostonlari o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, ruhiy iztiroblari va umidlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida inson ruhiyatini poetik ifodalash va uni millatning umumiy kechinmalari bilan uzviy bog'lash an'anasi XX asrning ikkinchi yarmida alohida rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Bu jarayonda Muhammad Yusufning ijodiy merosi alohida e'tiborga loyiqdir. Shoirning she'rlari va dostonlari oddiy xalq tilida ifoda etilgani holda chuqur falsafiy qatlamlarga ega bo'lib, o'zbek kitobxonining ma'naviy olamini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, "Qora Quyosh" dostoni 1938-yilning qatag'on voqealari, ziyolilar qatl etilishi, millatning og'ir taqdirini eslatadi. Bu asar shoirning ichki dunyosi bilan xalqning umumiy ruhiy manzarasini uyg'unlashtirgan eng mukammal asarlaridan biri sifatida baholanadi.

Tahlil va natijalar. Muhammad Yusufning "Qora Quyosh" dostoni inson ruhiyatini zulm va adolat, qo'rquv va iroda, umidsizlik va umid o'rtasidagi muvozanatda ko'rsatadi. "Qora quyosh" ramzi — zulmatning timsoli, ammo uning ortida yorug'likka intilish yashiringan. Asarda lirik qahramon individual qayg'u va iztirobni emas, balki xalqning umumiy ruhiy holatini poetik obrazlar bilan uyg'unlashtirib beradi. Shoirning asosiy ustunligi shundaki, u murakkab falsafiy holatlarni ham sodda, xalq tilida ifodalashga intiladi. Shu bois "Qora Quyosh" dostoni faqat poetik manba emas, balki adabiy-falsafiy manba sifatida ham ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Shoir she'riyati mavzu va g'oyalar ko'lamining rang-barangligi bilangina emas, balki badiiy qirralarining turlichaligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Inson va uning ruhiy holati, ichki kechinmalarini bevosita yoki bilvosita qalamga oladi va poetik so'z orqali hayotiy lavhalar chizadi. Bunga shoir inson va unga bog'liq bo'lgan voqea-hodisalarga murojaat qilish orqali erishadi. Shoir uslubida hayotiy voqea-hodisalar, holatlar tasviri zamirida o'zining asosiy fikrlarini ochishga harakat qiladi. Shu jihati o'laroq shoirni poetik tafakkuri g'oyat keng ekanligini ta'kidlash joiz. Shoir atrofida ro'y berayotgan jarayonlarga teran nigoh bilan qarashga, ularning tub mohiyatini anglashga intiladi. "Yozuvchi badiiy talantining o'lchovi" (Ch.Aytmatov) bo'lgan badiiy mahorat shoirning o'zida millatning ruhini ifodalagan har bir satrida yaqqol namoyon bo'ladi.

Dostonda syujetning umumiy manzarasi boshqa dostonlardan farqlanadi. Muhammad Yusufning "Qora Quyosh" dostoni qat'iy syujet chizig'iga emas, balki lirik-falsafiy mushohada shakliga asoslanadi. Shoir biror bir voqeani to'liq hikoya qilib bermaydi, balki voqea va manzaralarni lirik monolog, ichki mushohada va ramziy obrazlar orqali beradi. Bu jihati bilan doston o'zbek an'anaviy dostonnavisligidan farq qiladi.

Muhammad Yusuf she'rlari uchun o'ziga xos obrazlar tizimini yarata olgan ijodkordir. Ijodida kiyik, ohu, lola, suv pari kabi narsa, buyum, tushunchalar bilan bog'liq obraz va detallar ko'p uchraydi. Ammo mazkur dostondagi obrazlar shoir she'riyatidagi obrazlardan farq qiladi.

Asarda asosiy obraz – qoraygan quyosh. Bu obraz millatning ma'naviy holatini, lirik qahramonning ichki zulmatini ramziy ma'noda aks ettiradi. Shoir asarda bu obrazni bir necha bor qayta-qayta takrorlab, o'quvchini ruhiy tushkunlik manzarasiga yetaklaydi. Biroq doston faqat qorong'ilik tasviri bilan cheklanmaydi – unda umid ruhi ham mavjud.

Quyidagi misralar asosiy syujet manzarasini ochadi:

"Ko'rmayman – qorong'i, quyosh qoraydi..."

Bu satr birinchi o‘qishda oddiy ko‘rinadi. Ammo aslida lirik qahramonning qalbi zulmat bilan qoplanganini bildiradi. Quyosh–yashash, hayot, iliqlik, quvvat manbai. Uning qorayishi – yashash umidining so‘nishini anglatadi.

Muhammad Yusuf dostonida faqat tashqi manzaralarni emas, balki qalbning eng ichki kechinmalarini qog‘ozga tushiradi. Dostonning deyarli har bir sahifasi ruhiy tushkunlik, iztirob va yolg‘izlik tuyg‘usiga singib ketgan. Bu iztirob shoirning shaxsiy qayg‘usi sifatida emas, balki butun millatning og‘riqi sifatida talqin qilinadi.

Shoir lirik qahramonni jamiyatdan ajratmaydi. Uning ruhiy tushkunligi, aslida xalqning bugungi holatining ramziy ko‘rinishidir. Shu jihatdan quyidagi misralari dolzarb:

*“Biz qorong‘ilikka o‘ralib qoldik,
Yuraklarimizni qor quchdi, tun bosdi...”*

Bu yerda ko‘plik shaklida ishlatilgan “biz” so‘zi alohida ahamiyatga ega. Chunki sho‘r kunlarda birgina shoir emas, balki butun xalqning ko‘nglini zulmat qoplagan. Shoirning “Qora Quyosh”i shu qarashning badiiy hujjatidir.

Dostonning eng asosiy qatлами insonning ichki iztiroblari, yolg‘izlik, ma’naviy zulmat, jamiyatning og‘ir holati hayot va o‘lim o‘rtasidagi noaniqlik tasvirlanishidadir. Shoir lirik qahramonini alohida shaxs sifatida emas, balki jamiyatning o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida keltiradi. Bu yerda shoirning ustunligi shundaki, u shaxsiy kechinmani xalqning umumiy iztirobi bilan uyg‘unlashtira oladi.

Maqolada keltirilgan misralardan ko‘rinib turibdiki, “Qora Quyosh” obrazini tushunish faqat tashqi manzara bilan cheklanmaydi. Quyoshning qorayishi–bu ko‘ngil quyoshining qorayishi, umid nurining so‘nishi, **inson** qalbiga tushgan vahima va zulmat, jamiyatning tarixiy jarohatlaridan qolgan ma’naviy iztirob belgisi sifatida talqin qilinadi. Shoir “biz” zamirida butun millatning ruhiy manzarasini chizadi, u o‘zini xalqdan ajratmaydi, aksincha, xalqning iztiroblarini o‘z qalbi orqali poetik tasvirga aylantiradi.

Dostondagi “umid” motivi va ruhiy barqarorlik alohida e’tiborga molikdir. Muhammad Yusuf ijodida umid motivi har doim asosiy o‘rin egallaydi. Dostonning eng qorong‘i manzaralarida ham shoir umid ipini uzmaydi. Bu xususiyat “Qora Quyosh”da ham yaqqol ko‘rinadi.

Quyidagi misralar bunga dalil:

*“Bir kun quyosh qaytar, qora emas – yorug‘,
Qaytar nur ko‘ksimizga, bo‘lar tong sog‘-omon.”*

Shoir ruhiy zulmat tasviridan so‘ng darhol nur manzarasini tiklaydi. Shu tariqa ruhiy tushkunlik vaqtinchalik, nisbiy holat ekanini o‘quvchiga eslatadi. Doston qahramonlarining qalbida “yorug‘likka intilish” motivi shakllantirilib, bu xalqning yashashga, kelajakka ishonishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatib beradi.

Bu yondashuv Muhammad Yusufning xalqchil ijod uslubiga xos. Shoir xalq ruhiyatida abadiy nur borligiga ishonadi.

Tarixiy motiv va ruhiyatning uyg‘unligi ham asarda o‘ziga xos ifodaga ega. “Qora Quyosh” dostonida faqat bugungi kun emas, o‘tmish izlari ham seziladi. Doston ruhiy kechinmalarni milliy xotira bilan bog‘laydi. Qatag‘on qurbonlari timsolida xalqning umumiy dardi aks etadi. Shoir ba’zi o‘rinlarda tarixiy obrazlarga murojaat qiladi. Bu esa individual ruhiyatni millat xotirasi bilan bog‘laydi. Shoir bu tasniflari orqali inson ruhiyatidagi iztirob–bu shaxsiy fojea emas, balki millatning umumiy ruhiy jarohati ekanligini ta’kidlamoqchi bo‘ladi.

Masalan:

*“Bobolar uyquda, o‘g‘lonlar beqaror,
O‘tmish ko‘zlarida yulduzday yiltirar.”*

Bu misralarda oʻtmish ramziy koʻrinishda jonlanadi. Bobolar uyquda – bu xalqning ildizlari unutilgan, oʻtmish bilan bogʻliqlik zaiflashgan degan maʼnoni beradi. Shoir bunday oʻtmish eslash orqali ruhiy uygʻonishga undaydi.

“Qora Quyosh” dostonida zamonaviy iztiroblar bilan bir qatorda tarixiy motivlar ham oʻz aksini topadi. Shoirning bobolar, oʻtmish, ajdodlar xotirasiga murojaat qilishi millatning ildizlari bilan bogʻliqlikni taʼminlaydi. Bu jihat asarni nafaqat poetik-falsafiy manba, balki xalqning tarixiy xotirasini uygʻotuvchi badiiy manba sifatida ham qadrlashga asos boʻladi.

“Bobolar uyquda, oʻgʻlonlar beqaror” – bu misralar xalqning oʻz tarixiga qaytishi, millatning xotirasi uygʻonishi zarurligini eslatadi. Shoir zamonaviy maʼnaviy tushkunlikning ildizlarini oʻtmish bilan bogʻlab, oʻquvchini oʻz-oʻzini anglashga chorlaydi.

Dostonda ramziy obrazlar va ularning poetik vazifasi oʻzgacha tus oladi. Muhammad Yusuf dostonda koʻplab ramziy detal va obrazlardan foydalanadi. Bunday vositalar lirik qahramonning ichki holatini toʻliq ifodalashga yordam beradi. Qora quyosh – asosiy ramz boʻlsa, tun, qum, koʻhna tuproq, shamol kabi obrazlar qoʻshimcha manzara yaratadi.

Masalan, “tun” tushunchasi doston davomida bir necha bor uchraydi. Tun – bu qorongʻilik, noaniqlik, iztirob ramzi:

“Tun boʻldi, soʻz tugʻdi – sukutning oʻzi...”

Bu yerda tun nafaqat kechalik tushunchasi, balki ichki sukut, soʻzsiz iztirobning poetik ifodasi sifatida ishlatiladi.

Dostonning tili va uslubi shoirning boshqa dostonini yodga solsa ham, oʻziga xos ovozga ega. Muhammad Yusufning asosiy kuchi – oddiy, xalqona, tiniq tilda chuqur mazmunni yetkazishidir. Dostonning koʻplab qismi xalq tili ohangida, ortiqcha soxta badiiy bezaksiz, ammo maʼnosi teran tarzda qurilgan.

Badiiy til umumxalq tili bazasida yuzaga keladi. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan, umumodatlangan meʼyordan ogʻadi (yaʼni, til unsurlarini odatdagidan oʻzga shakl, maʼno, tartib, munosabat va shu kabilarda qoʻllaydi) va shu “ogʻish”dan maʼlum badiiy-estetik maqsadni koʻzda tutadi. Bu xil ogʻishlar tilning turli sathlarida – fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan meʼyordan ogʻishi natijasida yuzaga keladi. Ular tasvirning jonli va toʻlaqonli boʻlishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Leksik sathdagi meʼyordan ogʻish yozuvchining umumxalq tili bazasidagi leksik vositalardan foydalanishida koʻrinadi. Maʼlumki, umumxalq tilidagi soʻzlar nominativ vazifani bajarish holatida ham tasviriylik va ifodaviylik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Yaʼni, ijodkor ifoda va tasvirni soʻz maʼnosiga daxl qilmagan holda, mavjud soʻz xazinasidan “soʻz tanlash” hisobigagina kuchaytirishi mumkin boʻladi.

Shoir koʻpincha takrorlash, alliteratsiya, qofiya oʻyinlari vositasida ruhiy kechinmani kuchaytiradi:

*“Qora quyosh – qora tun,
Qora tun – qora kun.”*

Bu takrorlash lirik qahramonning ichki bezovtaligini soʻz ohangi bilan yetkazadi. Har bir soʻz bir-birini mustahkamlaydi, ruhiy iztirob oʻzining tovushiy ifodasini topadi.

Muhammad Yusufning “Qora Quyosh” dostoni oʻziga xos lirik qahramonga ega. Bu qahramon — shoirning oʻzi, ammo u oʻzini xalqning bir boʻlagi sifatida tasvirlaydi. Uning kechinmalari individual emas, balki umumlashgan.

Shoir koʻpincha oʻz-oʻziga murojaat qiladi, oʻz ruhiyatini ochib tashlaydi:

*“Ey koʻngil, qorongʻilik — senga joʻr,
Yorugʻlik yoʻq, tun boʻldi soʻqmoq yoʻq...”*

Bu ichki monolog ruhiy tahlilning asosi boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusufning “Qora Quyosh” dostoni inson ruhiyatini chuqur poetik ifodalashning yorqin namunasidir. Unda ruhiy tushkunlik, xalq izzatirobi va umid motivlari birlashadi. Inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beriladi.

Asar syujeti qat’iy voqea ketma-ketligidan ko‘ra, ichki mushohada va ramziy manzara asosida qurilgan. Shoirning lirik qahramoni o‘zining individual holatini xalqning umumiy holati bilan bog‘laydi. Shu sababli “Qora Quyosh” nafaqat bir shoirning shaxsiy ichki dunyosi, balki butun bir davrning ruhiy guvohnomasi sifatida qadrlanadi. Asarda xalqning qo‘rquvi, izzatirobi, umid va irodasi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lsa-da, yakunda inson qalbining yorug‘likka intilishi ustunlik qiladi. Bu doston nafaqat shaxsiy kechinmalar, balki millatning tarixiy xotirasi va ruhiy izzatiroblarini badiiy ifodalashda muhim manba hisoblanadi.

Asarning asosiy qadr-qimmati – uning xalqona, samimiy tilda yozilgani va umumxalq ruhiyatini aks ettirishidadir. Shoirning lirik qahramoni — aslida har bir o‘zbekning ruhiy ko‘zgusi, doston esa shu ruhiyatning adabiy hujjatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Qora Quyosh. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2014.
2. Jo‘rayev S. Muhammad Yusuf dostonnavisligida lirik kechinma. // O‘zbek adabiyoti va san’ati jurnali, 2020.
3. Karimov U. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ramziy ifoda. – Toshkent, 2019.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005.
5. Yusupova Z. Muhammad Yusuf poetikasi va ruhiyat. – Toshkent, 2021.